

BIRJAVIY TAHLIL



Oktyabr 2024

 +998(71)267-0842

 www.uzse.uz

Mundarija

| | |
|---|-----------|
| BIRJA SAVDOLARI | 3 |
| Birja savdolari tahlili | 4 |
| Birja savdo maydonlari tahlili | 5 |
| "Bond Market" obligatsiyalar bozori | 6 |
| Main Board bo'yicha Top 10 aksiya emitentlari | 8 |
| "FoP Board" aksiyalar bozori | 9 |
| Investorlarning asosiy toifalari ulushi | 10 |
| Top 10 brokerlar | 11 |
| Tarmoqlar tahlili | 11 |
| Aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi | 13 |
| Birja kotirovkalash varag'i | 14 |
| Savdo narxlari o'zgarishi tahlili | 15 |
| Qimmatli qog'ozlarning likvidligi | 15 |
| LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI | 18 |
| LTSMda savdolar tahlili | 19 |
| LTSM savdo maydonlari tahlili | 20 |
| LTSM savdo maydonining "FoP Board" aksiyalar bozori | 20 |
| Main Board bo'yicha Top 5 aksiya emitentlari | 22 |

BIRJAVIY SAVDOLAR



Oktyabr 2024




+998(71)267-0842



www.uzse.uz

Birja savdolari tahlili

2024 –yilning oktyabr oyi davomida “Toshkent” RFB savdo maydonlarida birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan jami 1,33 trln. so'mlik 28 697 ta bitim tuzildi. Bitimlar 59 ta emitentning 2,62 mlrd dona qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirilgan.



Yakunlangan oy davomida eng ko'p bitimlar 8 – oktyabrda 4 306 dona, eng kam bitimlar esa 15 – oktyabr sanasida tuzilib, ularning soni 381 donani tashkil etdi. Bitimlarning eng katta hajmi 22 – oktyabrda qayd etilib, kun davomida jami 1,23 trln. so'mlik bitimlar amalga oshirildi.

Oktyabr oyida tuzilgan bitimlarning o'rtacha kunlik soni 1 304 tani va o'rtacha kunlik hajmi esa 60,64 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oy davomida “Stock Market” aksiyalar bozorining “Main Board” savdo maydonidagi bitimlarning o'rtacha kunlik hajmi 949,69 mln. so'mni tashkil etdi.

Hisobot oyida “Stock Market” aksiyalar bozorining “Nego Board” savdo maydonida 13,48 mlrd. so'mlik 5 ta bitim tuzildi. Aksiyalar bozorining “FoP Board” maydonida 1,30 trln. so'mlik 18 ta bitim qayd qilindi. Shuningdek, “Repo Market” aksiyalar bozorining “Repo Nego Board” savdo maydonida umumiy qiymati 739 798,63 so'mlik 3 ta bitim tuzildi.

“Bond Market” obligatsiyalar bozorining “Main Board” maydonida umumiy qiymati 870,42 mln. so'mlik 215 ta bitim amalga oshirildi.

Birja savdo maydonlari tahlili


2024 –yilning oktyabr oyi yakunida “Stock Market” aksiyalar bozorining G1 - “Main Board” savdo maydonida 53 ta emitentning jami 20,89 mlrd. so'mlik aksiyalari bilan 28 456 ta bitim tuzildi.

| Bozor | Savdo maydoni | Bitimlar soni | Qimmatli qog'ozlar soni | Bitimlar hajmi, so'm |
|------------|-----------------|---------------|-------------------------|----------------------|
| UZSE STOCK | Main Board | 28 456 | 367 317 491 | 20 893 104 562,91 |
| | Nego Board | 5 | 1 085 587 154 | 13 479 250 387,88 |
| | FoP Board | 18 | 1 167 028 961 | 1 298 761 170 348,00 |
| UZSE REPO | Repo Nego Board | 3 | 10 | 739 798,63 |
| UZSE BOND | Main Board | 215 | 5 403 | 870 417 170,06 |
| | Jami | 28 697 | 2 619 939 019 | 1 334 004 682 267,48 |


Aksiyalar bozorining G1 - "Main Board" maydonida bitimlarning eng katta hajmi "ARIA SUG'URTA TASHKILOTI" AJning 4,40 mln. dona /ARST/ oddiy aksiyalari bilan 12,70 mlrd. so'mlik bitim amalga oshirilgan. Nominal qiymati 1 000,00 so'mni tashkil etuvchi qimmatli qog'ozlarning savdo narxi 2 886,84 so'mni tashkil etgan.

T1 – “Nego Board” savdo bo'limida 13,48 mlrd. so'mlik 5 ta emitent bilan 5 ta bitim qayd etildi. Ushbu bo'limda tuzilgan bitimlarning eng katta hajmi "Boshtransloyiha" AJning /BTRL/ qimmatli qog'ozlari bilan bo'lib o'tgan 7,91 mlrd. so'mlik bitimga to'g'ri keldi.

Aksiyalar bozorining Main Board maydonida bo'lib o'tgan bitimlar soni, dona




Aksiyalar bozorining Main Board maydonida bo'lib o'tgan bitimlar hajmi, mlrd so'm



"Bond Market" obligatsiyalar bozori


Hisobot davri yakuniga ko'ra, "Bond Market" obligatsiyalar bozori "Main Board" savdo maydonida 4 ta qarz instrumentlari bilan umumiy qiymati 870,42 mln.so'mlik 215 ta bitim tuzildi:

Obligatsiya instrumentlari bo'yicha bitimlar hajmi, mln so'm



Bitimlar hajmiga ko'ra eng yirik bitimlar «Biznes finans mikromoliya tashkiloti» MChJning /BFMT3V2/ obligatsiyalari bilan amalga oshirilib, ularning umumiy hajmi 510,45 mln. so'mni tashkil etdi, bu obligatsiyalar bozorida amalga oshirilgan umumiy bitimlar hajmining 58,64% ni tashkil etadi. Ushbu obligatsiyalar bilan 162 ta bitim tuzilgan bo'lib, bitim davomida 5 043 dona obligatsiya savdosi amalga oshirilgan. Ushbu emitentning korporativ obligatsiyalari qat'iy kupon stavkasi – 27% va so'ndirilish muddati – 13.09.2026 yil (muomala muddati-3 yil).

Obligatsiya instrumentlari bo'yicha hajimlar solishtiruvi, %



Obligatsiya instrumentlari bo'yicha bitimlar soni, dona




Bugungi kunda "Toshkent" RFB birja kotirovkalash varag'ida 7 ta emitentning 11 ta qarz qimmatli qog'ozlari mavjud:

| № | Emitent | Tikker | Emissiya sanasi va so'ndirilish sanasi | Kupon stavkasi | Bitta obligatsiyaning nominal qiymati (so'm) | Emissiya qilingan obligatsiyalar soni |
|---|---|---------|--|--------------------------|--|---------------------------------------|
| 1 | «Asia Alliance Bank» ATB | AABK1 | 15.07.2019-15.07.2026 | MB asosiy Stavkasiga +4% | 1 000 000,00 | 45 175 |
| 2 | «Kapitalbank» ATB | KPB4 | 13.05.2020-21.05.2027 | MB asosiy Stavkasiga +4% | 1 000 000,00 | 50 000 |
| 3 | «Biznes finans mikromoliya tashkiloti» MChJ | BFMT3 | 16.09.2022-30.08.2025 | 27,00% | 1 000 000,00 | 6 565 |
| | | BFMT3V2 | 09.10.2023-13.09.2026 | 27,00% | 100 000,00 | 200 000 |
| 4 | «Imkon finans mikromoliya tashkiloti» AJ | IFMT3 | 10.04.2023-25.03.2026 | 28,00% | 1 000 000,00 | 6 000 |
| | | IFMT4 | 24.04.2024-09.04.2027 | 28,00% | 1 000 000,00 | 10 000 |
| 5 | «Hamkor invest lizing» MChJ | HKIL3 | 25.04.2023-06.05.2026 | 18,00% | 1 000 000,00 | 17 500 |
| 6 | «Hamkorbank» ATB | HMKB1 | 30.04.2024-30.04.2025 | 22,00% | 1 000 000,00 | 50 000 |
| 7 | «O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi» AJ | IQMK3 | 20.12.2023-17.10.2026 | 19,00% | 1 000 000,00 | 140 000 |
| | | IQMK3V2 | 17.07.2024-08.07.2027 | 19,00% | 1 000 000,00 | 150 000 |
| | | IQMK5E | 16.09.2024-18.09.2029 | 18,00% | 1 000 000,00 | 50 000 |

Main Board aksiya bo'yicha Top - 10

Oktyabr oyida "Toshkent" RFBning "Stock Market" aksiyalar bozorining G1-"Main Board" aksiyalar maydonida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha Top - 10.

Aksiya bitimlar hajmi bo'yicha Top 10, mlrd so'm



Oktyabr oyi bo'yicha 12,70 mlrd. so'mga teng bo'lgan eng katta hajmdagi bitimlar "ARIA SUG'URTA TASHKILOTI" AJning /ARTS/ oddiy aksiyalar bilan qayd etilgan. Undan keyingi o'rinlarni mos ravishda 5,55 mlrd. va 612,74 mln. so'mga teng bo'lgan "1-TEMIR BETON MAHSULOTLARI ZAVODI" AJning /TBMZ/ va "O'zRTXB" AJning /URTS/ oddiy aksiyalari bilan tuzilgan bitimlar egallagan. Yuqori 10 talikni "HAMKORBANK" ATBning /HMKB/ hamda "Ipak Yo'li" AITBning /IPKY/ oddiy aksiyalari bilan mos ravishdagi 71,68 mln. va 51,38 mln. so'mlik bitimlar yakunlaydi.

Bitimlar soni bo'yicha Top-10, dona.



Eng ko'p bitimlar "IPOTEKA-BANK" ATIBning /IPTB/ oddiy aksiyalari bilan tuzilgan bo'lib, oyiga 10 918 dona bitimni tashkil etdi. Keyingi o'rinlarni "Aloqabank" AKning /ALKB/ va "Ipak Yo'li" AITBning /IPKY/ aksiyalari bilan mos ravishda tuzilgan 1 201 va 1 030 ta bitimlar egallaydi. Yuqori o'ntalikni "IPOTEKA-BANK" ATIBning /IPTBP/ imtiyozli aksiyalari va "O'zbektelekom" AKning /UZTL/ oddiy aksiyalari bilan mos ravishda tuzilgan 800 ta va 744 ta bitimlar yakunlagan.

“FoP Board” aksiyalar bozori maydoni


Joriy yilning oktyabr oyida “FoP Board” savdo maydonida 1,30 trln. soʻmlik bitim tuzildi, bu umumiy birja bitimlari hajmining 97,36 foizini tashkil etdi.

2024 yil 22 –oktyabr kuni “Stock Market” aksiyalar bozorining “FoP Board” savdo maydonida “Mikrokreditbank” ATBning /MCBA/ qimmatli qogʻozlari bilan 1,23 trln. soʻmlik 1 ta bitim tuzildi.

Bitimlar davomida 1,15 mlrd. dona oddiy aksiyalari sotildi va aksiyalarning savdo bahosi nominal qiymatiga teng boʻlib, bir dona aksiya narxi 1 068,00 soʻmni tashkil etdi

Binobarin, 31 oktabr kuni “FoP Board” savdo maydonida “Universal Bank” AKning /UNVB/ oddiy aksiyalari bilan 17 ta bitimlar tuzildi, 1 dona qimmatli qogʻozning savdo bahosi va nominal qiymati 5 000,00 soʻmga teng boʻldi. Ushbu bitim doirasida umumiy qiymati 66,60 mlrd. soʻmga 13,32 mln. dona qimmatli qogʻozlar sotildi.

FoP Board maydonining umumiy bitimlar hajmidagi ulushi, %




Investorlarning asosiy toifalari ulushi


2024-yil oktabr oyi oxirida RFB "Toshkent" qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish bo'yicha investorlarning asosiy toifalari orasida turli faoliyat turlarini ko'rsatdi.

Qimmatli qog'ozlarni sotib olishda eng katta hajm davlatga tegishli. Ushbu investorning umumiy hajmi 1,23 trl. so'mni yoki umumiy birja hajmining 92,37 foizini tashkil etdi. Jismoniy shaxslar tomonidan 63,93 mlrd.so'mlik qimmatli qog'ozlar xarid qilindi, bu umumiy xarid hajmining 4,79 foizini tashkil etdi. Eng kichik hajm XIF larga (Mutual Funds) tegishli– 2,83 mln. so'm.

Oktyabr oyida qimmatli qog'ozlarni sotib olish hajmi bo'yicha investorlarning asosiy toifalari



Oktyabr oyida qimmatli qog'ozlarni sotish hajmi bo'yicha investorlarning asosiy toifalari




mln.so'mni tashkil etdi.

Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha yetakchi-1,30 trln. so'mlik qimmatli qog'ozlarni sotgan banklar bo'ldi, bu umumiy hajmning 98,71 foizini tashkil etadi. Ulardan keyin umumiy hajmi 15,46 mlrd.so'm bo'lgan jismoniy shaxslar bormoqda, bu umumiy savdo hajmining 1,16% ga teng. Eng kam hajm XIF va QQB ishtirokchilariga (Securities company) tegishli bo'lib, ularning savdo hajmi mos ravishda 26,67 mln. va 16,83


"Toshkent" RFBda Top 10 brokerlar

2024 - yilning oktyabr yakunlari bo'yicha "Toshkent" RFBga a'zo bo'lgan akkreditatsiyalangan investisiya vositachilari (brokerlari) soni 49 tani tashkil etdi. Ular orasidan quyidagi brokerlar bitimlar soni va savdo hajmi bo'yicha top10 talikka kirishdi.

Xaridlar bo'yicha bitimlar soni




Xaridlar bo'yicha bitimlar hajmi




Qimmatli qog'ozlarni sotib olishda vositachilik qilgan brokerlik tashkilotlari orasida bitimlar soni bo'yicha eng ko'p bitimlar "Alp omad invest" MChJ orqali amalga oshirilib, 11 419 ta bitimni tashkil etdi. Savdolarning eng katta hajmi "Portfolio Investment" MChJ ishtirokidagi 1,23 trln. so'mlik qimmatli qog'ozlarni xarid qilish bo'yicha qayd etildi. Bitimlar hajmi bo'yicha top 10 talikdagi keyingi o'rinlarni tegishli ravishda 66,80 mlrd. va 21,71 mlrd. so'm bitimlar bilan "Orient Securities Market" MChJ va "Premium Finance" MChJ egalladi.

Sotuvlar bo'yicha bitimlar soni



Sotuvlar bo'yicha bitimlar hajmi




Eng ko'p bitimlar "Kapital-Depozit" MChJ brokeri orqali aksiya va obligatsiyalarni sotish bo'yicha tuzilgan bo'lib, 11 088 donani tashkil etgan. Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha top o'ntalikdan keyingi o'rinlarni mos ravishda 8 709 va 3 610 ta bitim bilan "Alkes Research" MChJ va "Portfolio Investments" MChJ egalladi. Qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha bitimlar hajmi bo'yicha eng yirik bitim "Portfolio Investments" MChJ orqali amalga oshirildi va 1,23 trln. so'mni tashkil etdi.

Tarmoqlar tahlili


Bitimlar hajmi bo'yicha tarmoqlar ichida bank va sug'urta sohalar qimmatli qog'ozlari yetakchi bo'ldi. Bank sohasi emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi 1,30 trln. so'mni tashkil etdi, bu umumiy birja aylanmasining 97,49%ni tashkil etdi. Sug'urta sohasiga taalluqli kompaniyalar qimmatli qog'ozlari bilan – 12,74 mlrd. so'm hamda transport tarmog'iga kiruvchi tashkilotlarning qimmatli qog'ozlari bilan – 7,91 mlrd. so'mlik bitimlar qayd etildi.

2024-yil Oktyabr oyida iqtisodiy sohalar bo'yicha bitimlar hajmi, %

- Banklar (97,49%)
- Sug'urta (0,96%)
- Transport (0,59%)
- Qurilish (0,42%)
- Agrosanoat (0,25%)
- Sanoat (0,16%)
- Boshqalar (0,11%)
- Aloqa (0,01%)
- Energetika (0,00%)
- Lizing (0,00%)



2024-yil Oktyabr oyida iqtisodiy sohalar bo'yicha bitimlar soni, dona




teng bo'lgan emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlarga to'g'ri keldi.

Eng ko'p bitimlar soni bank sektori emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bo'lib, 19 991 ta bitimni tashkil etdi. Boshqa sohalar qimmatli qog'ozlari bilan 2 048 dona, "Sanoat" sohasiga aloqador emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan esa 1 779 ta bitim tuzildi. Iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha eng kam bitimlar soni "Transport" sohasida – 111 dona, va "Lizing" tarmog'ida – 16 donaga

Aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi

Hisobot davrida birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvida 230,37 trln. so'mdan 235,15 trln. so'mgacha bo'lgan diapazonda o'zgarishlar qayd etildi.

2024 yil Oktyabr oyi uchun birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi, trln so'm



Bozor kapitallashuvining eng katta hajmi 18 – oktyabrga to'g'ri kelib, 235,15 trln. so'mgacha ko'tarilgan. Bozor kapitallashuvining eng past qiymati 16 oktyabr kuni qayd etilgan bo'lib, ushbu davrda emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi 230,37 trln. so'mni tashkil etgan. Shuni ta'kidlash joizki, hisobot davrining yakuniga qadar umumiy bozor kapitallashuvi kichik tebranishlar bilan barqarorlikni ushlab turibdi.

2024 – yil 31 – oktyabr holatiga ko'ra, birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi 232,93 trln. so'mni tashkil etdi.

Oy boshi bilan solishtirganda ushbu ko'rsatkich 0,40 foizga oshgan. Davr oxirida aksiya emitentlari soni 86 donaga yetdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan emitentlar soni 22 taga kamayganiga qaramay, umumiy bozor kapitallashuvi 80,71 trillion so'mga oshgan (53,02%).


Birja kotirovkalash varag'i

2024 yil 1-oktyabr holatiga ko'ra, birja kotirovkalash varag'ida 107 ta emitentning 162 ta instrumentlari mavjud edi. Joriy oyda "Toshkent" RFB birja kotirovkalash varag'ida listing jarayoni amalga oshirilmadi, biroq listingdan 17 ta emitentning 28 ta instrumenti chiqarib yuborildi:

| № | Emitent | Tiket | Delisting sanasi | Sabab |
|----|--|-------|------------------|--|
| 1 | "Andijon tajriba-sinov zavodi" AJ | ATSZ | 02.10.2024 | "Toshkent" RFB birja kotirovkalash varag'i to'g'risida"gi Nizomda belgilangan birja kotirovkalash varag'ida qimmatli qog'ozlar turushiga oid shartlar va talablarga rioya qilmaganligi sababli |
| | | ATSZP | 02.10.2024 | |
| 2 | "Andijonyog'moy" AJ | AEMK | 02.10.2024 | |
| | | AEMKP | 02.10.2024 | |
| 3 | "Bag'dod paxta tozalash" AJ | BGPT | 02.10.2024 | |
| | | BGPTP | 02.10.2024 | |
| 4 | "Buxoroneftgazavtonaql" AJ | BNGA | 02.10.2024 | |
| | | BNGAP | 02.10.2024 | |
| 5 | "Farg'ona yog'-moy" AJ | FAYM | 02.10.2024 | |
| | | FAYMP | 02.10.2024 | |
| 6 | "Kattaqo'rg'on yog'-moy" AJ | KAYM | 02.10.2024 | |
| | | KAYMP | 02.10.2024 | |
| 7 | "Matbuot tarqatuvchi" AJ | MATA | 02.10.2024 | |
| 8 | "Muborakneftgazmontaj" AJ | MNGM | 02.10.2024 | |
| 9 | "Neft va gaz ishlab chiqarishni ta'mirlash" AJ | NGIT | 02.10.2024 | |
| 10 | "O'zneftgazinformatika" AJ | UNGI | 02.10.2024 | |
| 11 | "Qashqadaryo parmalash ishlari" AJ | QAPI | 02.10.2024 | |
| 12 | "Surxon parmalash ishlari" AJ | SUPI | 02.10.2024 | |
| | | SUPIP | 02.10.2024 | |
| 13 | "Urganch sharob" AJ | UGSR | 02.10.2024 | |
| | | UGSRP | 02.10.2024 | |
| 14 | "Urganch yog'-moy" AJ | UGYM | 02.10.2024 | |
| | | UGYMP | 02.10.2024 | |
| 15 | "XTTB" AJ | XTTB | 02.10.2024 | |
| 16 | "Yog'gar" AJ | YGGR | 02.10.2024 | |
| | | YGGRP | 02.10.2024 | |
| 17 | "Konvin" AJ | KNVN | 08.10.2024 | Qimmatli qog'ozlarni bekor qilish |
| | | KNVNP | 08.10.2024 | |

Natijada, 2024-yil 31-oktabr holatiga birja kotirovkalash varag'ida 90 ta emitentning 134 ta instrumenti mavjud bo'lib, ulardan: 86 tasi aksiyalar emitentlari, shulardan 3 tasi obligatsiyalar emitentlari; 4 ta– faqat obligatsiya emitentlaridir.

Listing toifalari bo'yicha aksiya bozorining birja bitimlari to'g'risidagi ma'lumot



Savdo narxlari o'zgarishi tahlili

2024 – yil Oktyabr oyidagi eng likvidli qimmatli qog'ozlar** narxidagi o'zgarishlar*

| Nº | Emitent nomi Tikker | 01.10.2024 yildagi yopilish narxi | 31.10.2024 yildagi yopilish narxi | Narxlar o'zgarishi | Yopilish narxi dinamikasi |
|----|--|---|---|-----------------------|---------------------------|
| 1 | AJ "Chilonzor buyum savdo kompleksi" CBSK | 2,02 | 2,26 | 11,88% | |
| 2 | ATIB "Ipoteka-bank" IPTBP | 2,97 | 3,10 | 4,38% | |
| 3 | ATB "Hamkorbank" HMKBP | 19,79 | 20,50 | 3,59% | |
| 4 | AJ "O'zRITXB" URTS | 14 998,98 | 14 200,00 | -5,33% | |
| 5 | ATIB "Ipoteka-bank" IPTB | 1,35 | 1,25 | -7,41% | |
| 6 | AT "Aloqabank" ALKBP | 5,34 | 4,72 | -11,61% | |
| 7 | AT "Aloqabank" ALKB | 0,78 | 0,68 | -12,82% | |
| 8 | AJ "O'zbektelekom" UZTL | 4 590,00 | 3 999,89 | -12,86% | |
| 9 | AITB "Ipak Yo'li" IPKY | 193,99 | 167,00 | -13,91% | |
| 10 | ATB "Turonbank" TNBN | 2 840,00 | 1 310,00 | -53,87% | |

* Hisobot oyidagi birinchi bitimning ochilish narxlari va oxirgi bitimning yopilish narxlari taqqoslangan.

**Bitimlar soni bo'yicha top 10ta qimmatli qog'ozlar eng likvidli qimmatli qog'ozlar sifatida qabul qilingan (8-bet)

Oktyabr oyi boshidagi aksiyalarning yopilish narxi bilan 31 – oktyabrdagi yopilish narxini solishtirsak, eng ko'p savdo qilingan aksiyalar orasida uchta emitent qimmatli qog'ozlari narxi **▲3,59%** dan **▲11,88%** gacha oshgani qayd etildi. Narxlarning sezilarli o'sishini **▲11,88%** bilan "Chilonzor buyum savdo kompleksi" AJning /CBSK/ oddiy aksiyalari ko'rsatdi. Shuningdek, "Ipoteka-bank" ATIBning /IPTBP/ va "Hamkorbank" ATBning /HMKBP/ imtiyozli aksiyalari mos ravishda **▲4,38%** va **▲3,59%** ga oshdi.

Joriy oyda grafikda aks ettirilgan boshqa emitentning qimmatli qog'ozlari narxlarida biroz pasayish kuzatilgan bo'lib, narx tushish darajasi **▼5,33%** - **▼13,91%** oralig'ida bo'lgan bir vaqtda, "Turonbank" ATBning /TNBN/ oddiy aksiyalari **▼53,87%** ga arzonlashdi.

Qimmatli qog'ozlarning likvidligi

RFB "Toshkent"dagi qimmatli qog'ozlar likvidlik darajasiga ko'ra uch guruhga bo'linadi: yuqori likvidli, o'rtacha likvidli va past likvidli. Qimmatli qog'ozlarning likvidligi to'rtta mezon bilan belgilanadi: bitimlar soni, savdo hajmi, savdo kunlaridagi ishtiroki va bitimlarni tuzishda ishtirok etgan Birja a'zolarining soni. Oktyabr oyidagi Top-20 likvid qimmatli qog'ozlar:

| No | Emitent | Tiker | Guruh | VWAP | Min.narx | Max.narx |
|----|-------------------------------------|-------|-------------------|-----------|-----------|-----------|
| 1 | "O'zRTXB" AJ | URTS | yuqori likvidli | 14 498,42 | 13 800,00 | 16 100,00 |
| 2 | "O'zsanoatqurilishbank" ATB | SQBNP | yuqori likvidli | 29,35 | 26,51 | 35,00 |
| 3 | "Ipoteka-bank" ATIB | IPTB | yuqori likvidli | 1,31 | 1,16 | 1,58 |
| 4 | "Ipoteka-bank" ATIB | IPTBP | yuqori likvidli | 3,07 | 2,61 | 3,41 |
| 5 | "Biznesni rivojlantirish banki" ATB | BRBNP | yuqori likvidli | 247,73 | 200,01 | 331,22 |
| 6 | "Ipak Yo'li" AITB | IPKY | yuqori likvidli | 161,38 | 132,80 | 199,98 |
| 7 | "Aloqabank" AT | ALKB | yuqori likvidli | 0,62 | 0,59 | 0,94 |
| 8 | "Aloqabank" AT | ALKBP | yuqori likvidli | 6,15 | 4,10 | 13,12 |
| 9 | "O'zsanoatqurilishbank" ATB | SQBN | o'rtacha likvidli | 9,63 | 9,20 | 10,10 |
| 10 | "Agrobank" ATB | AGBA | o'rtacha likvidli | 548,51 | 500,00 | 609,00 |
| 11 | "Biznesni rivojlantirish banki" ATB | BRBN | o'rtacha likvidli | 76,83 | 65,00 | 91,55 |
| 12 | "Universal bank" ATB | UNVB | o'rtacha likvidli | 5 430,89 | 8 000,00 | 10 199,98 |
| 13 | "O'zmetkombinat" AJ | UZMKP | o'rtacha likvidli | 2 219,52 | 1 951,02 | 2 379,99 |
| 14 | "O'ztransgaz" AJ | UTGAP | o'rtacha likvidli | 6 670,83 | 6 000,00 | 9 799,00 |
| 15 | "Turonbank" ATB | TNBNP | o'rtacha likvidli | 1 902,53 | 2 100,21 | 2 999,99 |
| 16 | "Trastbank" XATB | TRSB | o'rtacha likvidli | 8 454,73 | 8 300,00 | 9 499,00 |
| 17 | "Mikrokreditbank" ATB | MCBA | o'rtacha likvidli | 599,13 | 680,00 | 800,00 |
| 18 | "Agrobank" ATB | AGBAP | past likvidli | 5 856,69 | 8 137,01 | 13 397,00 |
| 19 | "Quvasoytsement" AJ | KSCM | past likvidli | 36 050,29 | 70 000,00 | 79 999,00 |
| 20 | "Alskom" AJ | ALSM | past likvidli | 753,02 | 1 050,00 | 1 550,00 |

Yuqori likvidli qimmatli qog'ozlar eng faol sotiladigan qimmatli qog'ozlardir. Eng likvidli aksiyalar "O'zRTXB" AJ /URTS/ va "O'zsanoatqurilishbank" ATBning /SQBNP/ qimmatli qog'ozlari hisoblanadi. Ushbu aksiyalarning narx diapazoni mos ravishda 13 800,00 - 16 100,00 so'ni va 26,51 - 35,00 so'mni tashkil etdi.

O'rtacha likvidli qimmatli qog'ozlar savdoning o'rtacha darajasi bilan tavsiflanadi. Ushbu guruhga "Agrobank" ATB /AGBA/, "Universal bank" ATB /UNVB/, "O'ztransgaz" AJ /UTGAP/ kabi aksiyalar kiradi, ularning narxi mos ravishda 500,00 so'mdan 609,00 so'mgacha; 8 000,00 so'mdan 10 199,98 so'mgacha va 6 000,00 dan 9 799,00 so'mga o'zgardir.

Past likvidli qimmatli qog'ozlar - bu eng kam savdo faolligi va eng ko'p narxlarning o'zgarishi ko'rsatgan qimmatli qog'ozlar bo'ldi. Yigirmatalikni "Quvasoytsement" AJ /KSCM/ va "Alskom" AJning /ALSM/ past likvidli aksiyalari

egallab turibdi, ularning o'rtacha bahosi har bir aksiya uchun 36 050,29 va 753,02 so'm. Ushbu qimmatli qog'ozlarning narx diapazoni mos ravishda 70 000,00 so'mdan 79 999,00 so'mgacha va 1 050,00 so'mdan 1550,00 so'mgacha bo'ldi.

LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI (LTSM)



Oktyabr 2024



+998(71)267-0842




www.uzse.uz

LTSMda savdolar tahlili

Ko'rib chiqilayotgan davrda "Toshkent" RFBning listingdan tashqari savdo maydonlarida 87 ta emitentning 200,80 mln. dona qimmatli qog'ozlari bilan jami 242,05 mlrd. so'mlik 3 782 ta bitimlar qayd etildi.



Kundalik hisobda eng ko'p bitimlar 2 – oktyabr kuni amalga oshirilgan bo'lib, 329 donani; eng kam esa 15 – oktyabrda qayd etilgan bo'lib, 46 dona bitimni tashkil etgan. Oktyabr oyida o'rtacha kunlik savdo bitimlari soni 172 ta bitimni tashkil etgan bo'lib, bu o'tgan oyga nisbatan 9%ga kam.



Bitimlarning eng katta hajmi 31 – oktyabr kunida amalga oshirilgan bo'lib, kun davomida 131,01 mlrd. so'mdan ortiq bitimlar amalga oshirilgan, eng kam bitimlar hajmi 4 – oktyabr kuni 2,78 mln so'mni tashkil etgan. Oktyabr oyida o'rtacha kunlik savdolar hajmi 11,00 mlrd. so'mga teng bo'ldi

LTSM savdo maydonlari tahlili


“SME Stock” aksiyalar bozorining G1 – “Main Board” listingdan tashqari asosiy savdo maydonida 79 ta emitentning aksiyalari bilan jami 11,39 mlrd. so'mlik 3 655 ta bitimlar qayd etildi.

| Bozor | Savdo maydoni | Bitimlar soni | Qimmatli qog'ozlar soni | Bitimlar hajmi, so'm |
|------------------|---------------|---------------|-------------------------|---------------------------|
| SME STOCK | Main Board | 3 655 | 67 838 588 | 11 389 203 071,01 |
| | Nego Board | 123 | 7 158 691 | 17 299 024 884,76 |
| | FoP Board | 2 | 125 807 008 | 213 299 999 360,00 |
| SME BOND | Main Board | 2 | 60 | 60 000 000,00 |
| JAMI | | 3 782 | 200 804 347 | 242 048 227 315,77 |


Listingdan tashqari aksiyalar bozorining G1- “Main Board” savdo maydonida bitimlarning eng katta hajmi “OMAD-HAYOT INSURANCE” AJning umumiy qiymati 10,50 mlrd. so'm bo'lgan 10,50 mln. dona /OHIS/ aksiyalar bilan savdolar amalga oshirildi. Aksiyalarning savdo narxi nominal qiymatiga teng bo'lib 1 000,00 so'mni tashkil etdi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining “Nego Board” maydonida jami 17,30 mlrd.so'mlik 123 ta bitim 7,16 mln.dona aksiyalar bilan yuzildi. Eng yirik bitim “TAYYAB FINANCE MIKROMOLIYA TOSHKILOTI” AJning /OTFM/ 6,95 mln.dona aksiyalari bilan tuzildi. Umumiy qiymati 6,95 mlrd.so'mni tashkil qilgan aksiyalarning savdo narxi nominal qiymatiga teng – 1 000,00 so'mni tashkil etdi.

Aksiyalar bozorining Main Board savdo maydonidagi bitimlar soni, dona



Aksiyalar bozorining Main Board savdo maydonidagi bitimlar hajmi, mlrd so'm



“FoP Board” aksiyalar bozori maydoni


Joriy yilning oktyabr oyida “FoP Board” listingdan tashqari savdo maydoni seksiyasida 213,30 mlrd. soʻmlik 2 ta bitim tuzildi, bu umumiy birja bitimlari hajmining 88,12 foizini tashkil etdi.

2024 yil 29 – oktyabr kuni “Stock Market” listingdan tashqari aksiyalar bozorining “FoP Board” savdo platformasida “Toshkent tovar xomashyo birjasi” AJning /OTTB/ qimmatli qogʻozlari bilan

86,30 mlrd. soʻmlik 1 ta bitim tuzildi. Bitimlar davomida 17,26 mln dona oddiy aksiyalari sotildi va aksiyalarning savdo bahosi nominal qiymatiga teng boʻlib, bir dona aksiya 5 000,00 soʻmni tashkil etdi.

“Stock Market” listingdan tashqari aksiyalar bozorining “FoP Board” savdo platformasidagi eng katta bitim 2024-yil 31-oktyabr kuni “Ziraat Bank Uzbekistan” AJning /A010130/ qimmatli qogʻozlari bilan qayd qilindi. Umumiy qiymati 127,00 mlrd.soʻm boʻlgan bitim, umumiy bozor hajmining 52,47%ni tashkil etdi. Bitimlar davomida 108,55 mln. dona oddiy aksiyalar sotildi va aksiyalarning savdo bahosi nominal qiymatiga teng boʻlib, bir donasi uchun 1 170,00 soʻmni tashkil etdi.


FoP Board maydonining umumiy bitimlar hajmidagi ulushi, %



Main Board bo'yicha Top-5 aksiya emitentlari


"Toshkent" RFBning "SME Stock" aksiyalar bozorining G1- "Main Board" listingdan tashqari aksiyalar savdo maydonida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha Top-5.

Bitimlar soni bo'yicha Top 5 aksiya emitentlari, dona



Eng ko'p bitimlar hajmi "Uzsanoateksport" AJning /A056290/ aksiyalari bilan tuzilgan 804 dona bitimga to'g'ri keldi. Undan keyingi o'rinlarni "KAFOLAT" AJ /OKFS/ va "Uzikkilamchiranglimetall" AJning /UVCM/ oddiy aksiyalari bilan mos ravishda tuzilgan 364 va 250 ta bitimlar egalladi. Top-5likni "Kogon yog'-ekstraksiya zavodi" AJning /OKYZ/ oddiy va "KAFOLAT" AJning /OKFSP/ imtiyozli aksiyalari bilan tuzilgan 160 va 152 ta bitimlar yakunladi.

Bitimlar hajmi bo'yicha Top-5 aksiya emitentlari, mlrd. so'm



Bitimlarning eng katta hajmini "OMAD-HAYOT INSURANCE" AJning /OHIS/ va "Uzikkilamchiranglimetall" AJning /UVCM/ aksiyalari bilan mos ravishda 10,50 mlrd. va 642,07 mln. so'mlik bitimlar tashkil etdi. Undan keyingi o'rinlarni "TOSHKENTVINO KOMBINATI" AJning /A028090/ va "TDM" AJning /A026980/ aksiyalari bilan mos ravishda 71 va 39 ta tuzilgan 76,68 mln. va 34,50 mln. so'mlik bitimlar egalladi. Top-5likni umumiy qiymati 26,32 mln. so'mga teng bo'lgan "Matbuot tarqatuvchi" AJning /OMTQ/ aksiyalari yakunladi.